Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321022

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli Qarori

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

11. J.X.Ataniyazov, N.X.Jumayev, E.D.Alimardonov. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari (1-qism). Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. - 168 b.

12. Tojiev R.R. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Darslik.- Toshkent. "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2019 yil, 296 b.

13. Bobaqulov T.I., Abdullayev U.A. "Xalqaro valuta-kredit munosabatlari" Darslik. - Moliya.- Toshkent, 2019yil, 226 b.

14. Гордиевич Т. И., Рузанов П. В. Денежно-кредитная политика: основные режимы и трансмиссионный механизм // Омский научный вестник. Сер. Общество. История. Современность. 2019. Т. 4, № 2. С. 122–130.

Кудрин А., Горюнов Е., Трунин П. Стимулирующая денежно-кредитная полити ка: мифы и реальность // Вопросы экономики. 2017. №5. С. 5–28.

IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Karimov Shahbozxo'ja Xamdamjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi
karimovshahboz417@gmail.com

Annotatsiya. Milliy iqtisodiyotimizda xususiy tadbirkorlik ulushining ortib borayotgani ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli tovarlar bilan to'ldirish, zamon talablarini inobatga olgan holda xizmatlar ko'rsatish sohasini kengaytirish, eksport tarkibida jahon bozorlarida xaridorgir, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ko'paytirish, avvalo yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va shu asosda aholi daromadi hamda farovonligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Yuqoridagilar asosida, mazkur ishda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda hududlarda tadbirkorlik faoliyatining rolini oshirish hamda ushbu masalaga oid ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, iqtisodiyot, ichki bozor, xizmat ko'rsatish, eksport, import, yangi ish o'rinlari, aholi daromadlari, ishlab chiqarish, barqaror rivojlanish.

Mamlakatimizda tadbirkorlik sub'yektlari erkin faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususan, yuqori likvidli mahsulotlar, xom ashyo va materiallarni ochiq birja savdolarida sotishni tashkil etish, yangi tuzilayotgan tadbirkorlik sub'yektlarini ro'yxatga olishni osonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashga doir qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga keng imkoniyatlar ochib berdi. Mahalliy va xorijiy bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xo'jalik yurituvshi sub'yektlar

Published: 23.12.2024
Cite this article: Karimov Shahbozxo'ja Xamdamjon o'g'li (2024). Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatining rolini oshirish yo'nalishlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321022
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

o‘rtasida o‘zaro hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning eng muhim shartlari hisoblanadi. Ichki bozordagi ehtiyojlar hajmlarining tahlili davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini amalga oshirish orqali biznes va tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan talab yuqori bo‘lgan tovarlarning alohida turlarini ishlab chiqarishni kengaytirish uchun foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda [1].

Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 53,9% yaqini, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 27,5% va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 97,0% aynan shu soha - xususiy tadbirkorlik hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Taqqoslaydigan bo‘lsak, umumiy bandlikda kichik biznesning ulushi AQShda 54%, Buyuk Britaniyada 56%, Germaniyada 69,5%, Italiyada esa 71 %ni tashkil qiladi.

Ma’lumki, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish - mamlakatimizda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, bandlik muammosini hal etish, aholining real daromadlari va farovonligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Yurtimizda sodir bo‘layotgan tarkibiy o‘zgarishlarga hududlarning roli sezilarli darajada oshdi. Hududlarning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Kichik biznes mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘tgan yillardagi rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub’yektlari sonining (har 1000 aholiga nisbatan) eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida 29,2 birlik, Navoiy viloyatida 21,0 birlik, Sirdaryo viloyatida 17,3 birlik, Jizzax viloyatida 16,4 birlik va Buxoro viloyatida 16,3 birlikka yetdi. 2023 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Toshkent shahri - 18,9 %, Farg‘ona viloyati - 9,3 %, Samarqand viloyati - 8,8 %, Toshkent viloyati - 8,1 %, Xorazm viloyati - 7,4 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasi - 7,3 %, Qashqadaryo viloyati - 6,9 % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yanada rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarning qabul qilinishi natijasida inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. 2023 yilda kichik tadbirkorlik sub’yektlarining YaHMdagi hududlar bo‘yicha eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida - 75,9 %, Jizzax viloyatida - 73,7 %, Namangan viloyatida - 72,8 %, Samarqand viloyatida - 72,8 %, Buxoro viloyatida - 71,7 % va Xorazm viloyatida - 69,7 % ni tashkil etdi (rasm).



Rasm. YaHMda kichik tadbirkorlik sub’yektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan hududlar [2], % da, (2023 yil)

Shu bilan birga Farg‘ona viloyatida - 69,5 %, Qashqadaryo viloyatida - 68,4 %, Andijon viloyatida - 66,0 %, Sirdaryo viloyatida - 63,6 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasi - 58,7 %, Toshkent shahrida - 49,8 % va Toshkent viloyati - 48,7 % ni tashkil qildi. Bu bo‘yicha Navoiy viloyati eng kichik ko‘rsatkichga ega bo‘lib 26,0 % ni tashkil qildi. Hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Surxondaryo viloyatida - 72,4 %, Farg‘ona viloyatida - 68,4 %, Xorazm viloyatida - 64,2 %, Sirdaryo viloyatida -

63,4 %, Buxoro viloyatida - 45,9 % va Jizzax viloyatida - 43,5 % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Navoiy viloyatida - 9,0 % ni tashkil etdi.

Mamlakatimizda 2023 yilda kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 7,1 mlrd. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 29,0 % ini tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Surxondaryo viloyatida - 72,4 %, Farg‘ona viloyatida - 68,4 %, Xorazm viloyatida - 64,2 %, Sirdaryo viloyatida - 63,4 %, Buxoro viloyatida - 45,9 % va Jizzax viloyatida - 43,5 % ni tashkil qildi. Hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida - 88,2 %, Farg‘ona viloyatida - 81,5 %, Qashqadaryo viloyatida - 73,8 %, Sirdaryo viloyatida - 73,7 %, Namangan viloyatida - 70,2 %, Jizzax viloyatida - 59,5 % hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 57,4 % ni tashkil etdi [3].

Kichik biznes sub’yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 19 349,5 million AQSh dollarini yoki jami importning 50,7 % ini tashkil etdi. Eng past ko‘rsatkich Navoiy viloyatida - 9,0 % ni tashkil etdi. 2023 yilda kichik biznes sub’yektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 19 349,5 million AQSh dollarini yoki jami importning 50,7 % ini tashkil etdi.

Eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kichik biznes sub’yektlarining davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlanishi eksport mahsulotlari va xizmatlari hajmining o‘sishida kichik biznes hissasining ortib borishiga zamin yaratib berdi. Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan yiliga 20 mln. dollardan ortiq eksport qiluvshi korxonalarga 5 mln. dollargacha imtiyozli kreditlar ajratildi.

Yuqori sifat va nazorat tizimiga ega Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda sertifikat berilgan asbob-uskuna va xom ashyolarga milliy sertifikat olish amaliyoti bekor qilindi. Bir qator mamlakatlar to‘g‘rida-to‘g‘ri kichik korxonalarga yo‘naltirilgan ish vaqtini qisqartirish, vaqtincha ishdan bo‘shatish va kasallik ta’tiliga chiqarish kabi chora-tadbirlar joriy etmoqda. Shunga o‘xshab, hukumatlar vaqtincha ishdan bo‘shatilgan ishchilarga to‘g‘rida-to‘g‘ri yordam yoki kompaniyalarga ish o‘rinlarini saqlab qolishlari uchun ko‘mak qo‘rsatmoqdalar. Ko‘p holatlarda, mamlakatlar o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etishmoqda.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston sharoitida turli xil salbiy oqibatlarni kichik biznesga ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar tarkibiga quyidagilarni kiritish o‘rinli deb hisoblaymiz:

- iqtisodiyotda kichik biznes sub’yektlari mahsulotlariga talabni yetarli darajada ushlab qolinishini ta’minlash maqsadida kichik biznes ishchilarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- transport va nooziq-ovqat tovarlar savdosi (ayniqsa, kompyuter va aloqa vositalari) sohalarini sanoat ishlab chiqarish va ta’mirlash sohalari kabi dezinfektsiya qoidalariga amal qilgan holda faoliyatini qayta tiklashga imkon yaratib berish choralarini ko‘rish;
- banklar tomonidan faoliyat yuritayotgan korxonalarga foizsiz yoki davlat kafolati ostida kreditlar ajratish masalasini ko‘rib chiqish (yangi tashkil etilayotgan korxonalar bundan mustasno);
- eksport qiluvchi kichik firmalar faoliyatini har tomonlama qo‘llab-qo‘vvatlash;

- masofadan turib ishlash mumkin bo‘lgan faoliyat turlarini (biznes konsalting, bank va moliya, sug‘urta, savdo) texnik va texnologik jihatdan qo‘llab-qo‘vvatlash va raqamli texnologiyalar, internet qamrovini kengaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish.

Ta’kidlash joizki, kichik biznes vakillari katta korxonalarga qaraganda manevr qilish uchun yetarlicha katta mablag‘larga ega emasliklari, sug‘urta va moliyalash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari nisbatan cheklanganligi tufayli "ijtimoiy izolyatsiyalanish" holatlariga nisbatan ko‘proq ta’sirchan bo‘ladi. Ko‘pchilik mamlakatlarida korxonalar soni, qo‘shimcha qiymatning yaratilishi va bandlikning asosiy ulushi kichik biznes hissasiga to‘g‘ri kelishi sir emas. Biroq, chegaralarning yopilishi oqibatida ta’sir ko‘rgan sayyohlik va transport sohalari, shuningdek, vaqt omili muhim sanalgan moda sanoati va oziq-ovqat sohasida kichik biznesning ulushi juda yuqori. Shu bilan birga, kichik va o‘rta korxonalar tashqi shoklar keltirib chiqaradigan ortiqcha xarajatlarga kamroq bardoshli va moslashuvchan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida. 17.01.2019 yil, PF-5635-son, https://lex.uz/docs/4168749.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2023 yil yanvar-dekabr, dastlabki ma’lumotlar, Toshkent-2024.

3. https://farstat.uz/uz/ - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari

O‘ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTINING FOND BIRJASIGA TA’SIRI

Eshbekov Murodjon
BuxDU, talaba
Xoshimov Javlonbek
TDIU, talaba
uktamovichmurodjon2004@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqola O‘zbekiston fond birjasining hozirgi holatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada O‘zbekiston fond birjasining rivojlanish tarixi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda bozorning istiqbollari keng yoritilgan. Bozorning hozirgi struktura va savdo faoliyati, texnologik integratsiya va yangi moliyaviy vositalar kiritish kabi muhim jihatlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston fond birjasining likvidlik, regulyatsiya va xavfsizlik masalalaridagi muammolari, moliyaviy savodxonlikning pastligi va xalqaro investorlarga nisbatan cheklovlar keltirilgan. Shu bilan birga, bozorni rivojlantirish va global miqyosda integratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan qadamlar, jumladan raqamli iqtisodiyotga o‘tish va yangi investitsiya vositalarini joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Maqola, O‘zbekistondagi fond bozorining salohiyatini ochib beradi va uning rivojlanish istiqbollariga oydinlik kiritadi.